

# **Komplayens xizmati tomonidan 2022-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida**

## **MA'LUMOT**

### **I. Tashkiliy masalalar.**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (*keyingi o'rinlarda – Jamiyat*)ning 2021-yil 21-aprelda tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasi ko'ra, Kuzatuv kengashi tarkibida “Komplayens xizmati” tashkil etilgan.

Jamiyat Kuzatuv kengashining 2021-yil 6-dekabrdagi bayonnomasi bilan Komplayens xizmatining Nizomi va **15 ta** shtat birligidan iborat tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Shundan 7 ta shtat joylardagi ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etildi.

Jamiyatning 2021-yil 23-dekabrdagi buyrug'i bilan ochiq tanlov hamda sinov tadbirlari asosida Komplayens xizmatiga **ishga qabul qilish tartibi** qabul qilindi.

2021-yil 24-dekabrdan joriy yil 6-yanvarga qadar bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Jamiyatning rasmiy veb-saytiga hamda telegram ijtimoiy tarmog'idagi sahifasiga e'lonlar joylashtirildi. Hujjat topshirgan nomzodlar bilan o'tkazilgan sinov tadbirlari natijasi bo'yicha xodimlar ishga qabul qilindi.

### **II. Amalga oshirilgan ishlar.**

ISO 37001:2016 xalqaro standartining muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan jamiyatning 2022-yil 14-martdagi **Yo'l xaritasi** tasdiqlandi.

Unga muvofiq, Jamiyatning “**Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati**”, “**Xodimlarni shaffof tizim asosida ishga qabul qilish tartibi**” va “**Odob-axloq kodeksi**” qabul qilindi.

Komplaens xizmati tomonidan ichki idoraviy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazish ishlari tashkil etilib, joriy yilda **263 ta** ichki hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Xaridlar sohasida “Potensial tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarining dastlabki malakasini baholash bo'yicha tashkil etilgan komissiya” tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan. Mazkur sohada, 2021-yilda **12 ta** va joriy yilning o'tgan davrida **7 ta** xarid hujjatlari ko'rib chiqildi. Shundan **1 ta** holatda manfaatlar to'qnashuvi oldi olindi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma'lumotlar” bo'limlari joriy etildi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo'limida mavjud ichki normativlar hamda murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallari, Komplayens xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi.

Fuqarolarning murojaatlari asosida o'tkazilgan **2 ta** xizmat tekshiruv hujjatlari qonuniy chora ko'rish uchun Ixtisoslashtirilgan prokuraturaga yuborildi.

Jamiyatning 4 ta tuzilmasida o'tkazilgan o'rganishlar davomida kamchiliklarga yo'l qo'ygan bir nafar xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanildi.